

BOSHLANG'ICH SINFLARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA LUG'AT BILAN ISHLASH METOTIKASI

Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna

Nizomiy nomidagi TDPU

1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish ustida ishlash nazariy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan. O'quvchilarda lug'at ustida ishlash jarayonlarini rivojlantirish jarayoniga texnologik yondashuv, uni o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etishning innovatsion shakl, vosita, metodlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: lingvistik kompetensiya, lug'at, imlo, to'g'ri yozish, test, rasmi topshiriqlar, jadval, mustaqil ishlar.

Abstract In this article, the work on the formation of linguistic competences in primary-grade native language classes is theoretically and pedagogically justified. A technological approach to the process of developing vocabulary work among students, innovative forms, tools, and methods of applying it to the educational process were discussed.

Key words: linguistic competence, vocabulary, spelling, correct writing, test, picture tasks, table, independent works.

Абстрактный В данной статье теоретически и педагогически обоснована работа по формированию языковых компетенций на уроках родного языка в начальных классах. Обсуждался технологический подход к процессу развития словарной работы учащихся, инновационные формы, средства и методы его применения в учебном процессе.

Ключевые слова: языковая компетентность, словарный запас, орфография, правильное письмо, тест, задания с картинками, таблица, самостоятельные работы.

Boshlang'ich sinflar o'quv dasturida "ona tili, o'qish bolalarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta'sirchanligini ta'minlashning muhim omilidir" deyiladi.

"Lug'at ishida so'zning ma'nosi, talaffuzi va imlosi e'tiborda tutiladi. Bular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o'quvchilarining ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o'zgalar nutqini anglashini ta'minlashdir" [1].

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini o'qitish lug'at ustida ishslash bilan uzviy bog'liq sanaladi. 1-sinf o'quvchilari Alifbo kitobida so'zning ma'nolarini o'rganish bilan bir qatorda shu so'zlar qatnashgan so'z birikmalarini ham o'rgana boshlaydilar. Alifboda har bir harfga o'sha harf bilan boshlanuvchi so'z hamda mana shu so'zga oid rasmlar berilgan bo'ladi.

Ona tilini o'rganish o'quvchilarga o'z fikrlarini bayon qila olishni o'rgatadi. Shuning uchun ham til-aloqa vositasi hisoblanadi. Lug'at ustida ishslashni o'rgatish jarayonida ona tilining keng imkoniyatlaridan amaliy foydalana olishni o'rgatamiz. O'quvchilarining lug'at boyligi oshgani sayin o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda bayon qilishni o'rganishadi.

So'z-o'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, narsa-hodisalar, jarayonlar, shaxslar, belgi va miqdorlarlari, xususiyatlarni, harakat va holatni, aloqa va munosabatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan, mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lgan, shuningdek, turli Grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanadigan eng muhim til birligi; gapning qurilish materiali [2].

Tuyg'u, tushuncha va istaklarimizni yozuvda yoki og'zaki anglatayotganimizda so'zlardan foydalanamiz.

Lug'at-[arabcha –til, sheva, so'z, ibora]1. Biror tildagi so'zlarni ma'lum tartibda (odatda alifbo tartibida) jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib berilgan kitob. 2. So'z; tildagi barcha so'zlar majmui, so'z boyligi. [3]

2-sinf ona tili darsligida esa bola e'tiborini o'rganilgan yangi so'zlarni qanday yozilishiga qaratadi. Bolalarga oson bo'lishi uchun har bir mavzuda yangi


qo'llanilayotgan so'zlar uchun so'zlar yoki rasmlar orqali izohlar keltirilgan. X va H undoshini so'zlarda farqlay olish aynan 2-sinf ona tili darsligidan o'rgatilib boshlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga imlo lug'atni o'rgatish uchun so'zning to'g'ri yozilishini o'rgatib boorish lozim. O'quvchilar so'zlarni to'g'ri yoza olishi uchun darsliklarda har mavzu so'ngida "Tog'ri va xato" jadvali berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu jadvalda o'tilgan mavzuga oid so'zlar xato yoki to'g'ri yozilgan holda beriladi. O'quvchilar esa berilgan so'zni xato yoki to'g'ri yozilganini o'zlari topishi kerak. Hamda to'g'ri bo'lsa, "T" beligisi orqali belgilaydi. Xato bo'lsa, aksincha "X" orqali belgilaydilar. Bu jadvalni har yangi mavzuda ishlash orqali o'quvchilar so'zlarning yozilishiga e'tibor bera boshlaydi.

Kitop	Kitob
Sinif	Sinf
Hurmo	Xurmo

Shunday so'zlar borki, bular yolg'iz o'zi qo'llanganda ma'no anglatadigan so'zlardir ya'ni so'zlangan paytda aqlimizda jonlantira oladigan so'zlardir. Atash ma'nosiga ega so'zlar hisoblanadi. Qoshiq deyishimiz bilan ko'z oldimizga ovqat yejish uchun mo'ljallangan buyum keladi. Ko'rib turganingizdek qoshiq so'zi atash ma'nosiga ega. Hayolimizda o'zining chizmasi bor. Quyidagi jadvalda mana shunday atash ma'nosiga ega,

Muattar hidli, yorqin yaproqli o'simlik (Gul deganimzda o'quvchining hoyolida xushbo'y hidga ega bo'lган chiroyli o'simlik gavdalananadi)	
--	--

<p>Yashash uchun mo'ljallangan joy (uy deganimizda o'quvchining hayoliga yashash uchun qurilgan eshik, derzalari bor bo'lган maskan gavdalanadi)</p>	
<p>Uzoqni yaqin qilish uchun mo'ljallangan texnika. (mashina deganda bolalar ongiga 4 ta baloni bor, eshiklari bor bo'lган kerakli manzilga oson yetkazib oboradigan texnika keladi)</p>	
<p>O'qish uchun mo'ljallangan o'quv quroli (kitob deganda bolalar ongiga o'qish uchun yaratilgan, qalin muqovali, ko'p varoqli predmetni keltiradilar)</p>	

Yolg'iz o'zi qo'llanganda ma'no anglatmaydigan so'zlar ham bor. Ular faqat matn ichida so'zlarni bir-biriga bog'lash yo qo'shimcha ma'no yuklash uchun xizmat qiladi. Bu so'zlarni yolg'iz qo'llaganimizda hayolimizda hech qanday tushuncha gavdalanmaydi. Bular ham so'z. Bular yordamchi so'zlar: va, qadar, hamda, bilan, kabi, singari, tufayli.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotiy suhbatlarda, kitob o'qiganlarida, televizor ko'rghanlarida, o'rtoqlari bilan o'ynaganda yordamchi so'zlarga ko'p duch keladilar:

Zarifa bilan Nigora birga kitob o'qidi.

Men bog'da olma va gilos yedim.

Ammo bilan, va so'zlarining yordamchi so'z ekanligini bilishmaydi. O'qituvchilar bu yordamchi so'zlarning atash ma'noga ega emasligini, so'zni ko'rgan yo eshitgan zamonimizda hech qanday tushuncha paydo bo'lmasligini tushintirishimiz kerak. Shu sababdan bu so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi. o'zi mustaqil qo'llana olmaydi.

Boshlang'ich sinfdayoq o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish uchun ona tili va o'qish darslarida o'qituvchi tomonida avvaldan tayyorlangan so'zlar berilib, shu so'zlar yordamida 2 ta so'zdan iborat so'z birikmasi yo gap, 3 ta so'zdan iborat so'z birikmasi yo gap tuzilish o'rgatilib, mustaqil bajarish talabi qo'yilsa, o'quvchilarning ongida so'z boyligi oshib boraveradi.

Misol uchun 2-sinf o'quvchilariga 2-sinf birinchi qism darslikni tugatytoganda, x va h harfi qatnashgan 30 ta so'zni o'quvchilarga tarqatadi. O'quvchilar bu so'zlarni qatnashtirib "Jumla quraman" musoboqasida qatnashadilar. O'qituvchi bu musoboqaga sodda bo'lган va bolalarga tushunarli bo'lган shartlar qo'yadi: o'qituvchi bolalarga darsda foydalanilgan so'zlarni avvaldan hozirlaydi, o'quvchilar bu so'zlar qatnashgan gap yasaydilar, yasagan gaplarida oldin takrorlangan so'zlardan iloji boricha foydalanmaydilar.

O'qituvchi darsni yanada qizitish, bolalarni hammasini darsga jalb etish uchun to'g'ri gap tuza olgan bolalarga kichik sovg'alar berib rag'batlantirishi mumkin.

O'quvchilarga bu tarzda o'tilgan mavzuga oid so'zlardan gap tuza olishni o'rgatish o'quvchilarning lug'at boyligi oshiradi hamda o'quvchilarning nutqi ravon rivojlanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ona tili o'qitish metodikasi Karima Qosimova 294-bet. Toshkent. "Nosir" nashriyoti 2009

2. O'zbek tilining izohli lug'ati 3-jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"
Davlat ilmiy nashriyoti 2007-yil. 608-bet.

3. "O'zbek tilining izohli lug'ati 2-jild "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"
Davlat ilmiy nashriyoti 2006-yil. 512-bet.